



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar- fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **213 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **4,4%** ni tashkil qildi.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **203 taga oshgan.**

2018 yil 1 mart holatiga ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14475 taga etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 326 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,7 % kamaygan hamda ularning soni 39tani tashkil

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 158 ta (1,1 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13832 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (24,4 %), Urganch (10,3 %), Xiva (10,3%) tumani manlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 mart holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	14475	100,0	13832	100,0
Urganch sh.	3622	25,1	3379	24,3
Xiva sh.	1221	8,4	1202	8,7
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	731	5,1	714	5,2
Gurlan	878	6,1	825	6,0
Qo'shko'pir	816	5,6	789	5,7
Urganch	1464	10,2	1424	10,3
Xazorasp	982	6,8	953	6,9
Xonqa	1063	7,3	1029	7,4
Xiva	1483	10,2	1420	10,3
Shovot	715	4,9	661	4,8
Yangiariq	962	6,6	923	6,7
Yangibozor	538	3,7	513	3,7


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,6 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,2 f.p. ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdoda, 15,9 % sanoatda, 10,3 % qurilishda, 7,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa hamda 29,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-fevral holatiga 329 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 25,8 % ga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (80 ta), Urganch tumanida (57 ta), Xiva shahri (32 ta) va Yangiariq tumanlarida (32 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (10 ta), Bog'ot (12 ta) hamda Qoshko'pir (12 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (93 ta), sanoatda (69 ta), qurilishda (43 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (31 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (2 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (6 ta) va yashash va ovqatlanish xizmatlarida (9 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p) hamda boshqa faoliyat turlarida (-0,3 f.p dan) kamayganligi buning natijasida sanoatda (+0,3 f.p.), savdoda (+0,2 f.p), tashish va saqlashda (+0,2 f.p.) , qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,2 f.p.), qurulishda va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.dan), axborot va aloqada (0,0 f.p.dan), ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2018 y.	01.03.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,2	-1,0
Sanoat	15,9	15,6	0,3
Savdo	23,9	23,7	0,2
Tashish va saqlash	3,9	3,7	0,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,8	7,6	0,2
Qurilish	10,3	10,2	0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,4	5,3	0,1
Axborot va aloqa	1,6	1,6	0,0
Boshqa turlari	29,0	29,3	-0,3

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 mart holatiga 11107 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3978 ta, oilaviy korxonalar – 914 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5903 ta ,aktsiyadorlik jamiyatlari-29 ta va boshqalar 283 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 51 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga yoki 24,3 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 46 tasi qo'shma korxonalar, 5 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar 12 ta (23,5 %i), Shovot tumani 11 ta (21,6 %) va Xiva shahar 7 ta (13,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Gurlan tumani 1 ta (2,0 %), Xazorasp tumani 1 ta (2,0 %), Xonqa tumani 1 ta (2,0 %) va Yangibozor tumani 1 ta (2,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 31 ta (60,8 %), savdoda 8 ta (15,7 %), qurilishda 4 ta (7,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (2,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2 ta (3,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2ta (3,9 %) va boshqa turlarida 3ta (5,9 %) tashkil qilgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda axborot va aloqada umuman yo'qligi ma'lum bo'ldi. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 mart holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11031 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 3,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2735 tasi (24,8 %) Urganch shahriga, 1243 tasi (11,3 %) Xiva tumani, 1183 tasi (10,7 foizi) Urganch tumani hamda 1105 tasi (10,0 foizi) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11031 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3287 tasi (29,8 %) – savdoda, 2182 tasi (19,8 %) - sanoatda, 1420 tasi (12,9 %) - qurilishda, 1053 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 737 tasi (6,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 532 tasi (4,8%) - tashish va saqlashda, 227 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 205 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1388 tasi (12,6%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-fevral oylarida 295 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (74 ta), Urganch tumani (49 ta), Xonqa tumani (26 ta) va Yangiariq tumanida (25 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (10 ta), Qo'shko'pir (11 ta), Bog'ot (12 ta), Xiva (13 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (93 ta), sanoatda (69 ta), qurilishda (43 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (30 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (6 ta), axborot va aloqada (2 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 949 tani tashkil etib, ulardan 914 tasi yoki 96,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 35,9 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,5 % yoki 251 tasi sanoat, 25,1 % yoki 229 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,5 % yoki 187 tasi savdo, 11,7 % yoki 107 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,8 % yoki 16 tasi qurilish, 1,5 % yoki 14 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 8 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,2 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, hamda 10,9 % yoki 100 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan